
Yakka tartibdagi tadbirkor ham QQS to'laydimi?

Qo'shilgan qiymat solig'i yaxshimi yoki yagona soliq? Yakka tartibdagi tadbirkor ham qo'shilgan qiymat solig'i to'laydimi? Bunday jarayon tovar oborotini kamaytirib ko'rsatishga sabab bo'lmaydimi? Shu kabi savollar bir necha oydan buyon qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Mazkur masalalarga oydinlik kiritish, 2019 yil 1 yanvardan joriy etilayotgan o'zgarishlarni etkazish, shu bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlari va hisobchilarning malakasini oshirish maqsadida Farg'ona va Marg'ilon shaharlari hamda Quva tumanida ATB "Qishloq qurilish bank" mijozlari bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokida viloyat Davlat soliq boshqarmasi tomonidan Malaka oshirish markazi hududiy filiali bilan hamkorlikda o'quv-seminarlari tashkil etildi.

Bir necha kun avval qabul qilingan O'RQ-508 ga ko'ra, Soliq kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritildi hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi tasdiqlangani haqida axborot berildi

Mazkur tartibga ko'ra, umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun 10 foizli, qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun 8 foizli, chakana, chakana-ulgurji savdo korxonalarini uchun 6 foizli, auditorlik, soliq maslahati, konsalting hamda brokerlik xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar uchun 15 foizli, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta sotuvchi korxonalar uchun 4 foizli, yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari iqtisodiyotning boshqa yo'nalishlaridagi korxonalar uchun 7 foizli ba'zaviy stavkada QQSning pasaytirilgan stavkalari tasdiqlandi.

- QQSning soddalashtirilgan tartibi yillik tovar aylanmasi 1 milliard so'mdan 3 milliard so'mgacha bo'lganlarga qo'llanilar ekan. Bugungi kunda korxonamizning yillik tovar aylanmasi 200 million so'm atrofida bo'lib, 8 nafar xodim ishlaydi, - deydi "Fersilk texno text" korxonasi bosh hisobchisi. - Bugungi seminardan ma'lum bo'ldiki, biz yagona soliq to'lovchi bo'lib qolaverar ekanmiz. Lekin agar o'zimiz istasak QQS to'lovchi bo'lib qayta ro'yxatdan o'tishimiz mumkinligi haqida ma'lumot oldim. Biz kelsai yilda korxonamiz faoliyatini yanada kengaytirishni rejalashtiryapmiz. O'ylaymanki, soliq tizimidagi o'zgarishlar nafaqat tadbirkorlar, balki oddiy ishchi-xodimlarning ham daromadi ortishiga xizmat qiladi.

Seminarda 2019 yildan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan soliqlarga ham bir qancha o'zgartirishlar kiritilganligiga e'tibor qaratildi. Ya'ni, yakka tartibdagi tadbirkorlar 2019 yil 1 yanvardan boshlab bir kalendar yilda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi miqdoriga qarab soliq to'laydilar. Ya'ni,

- 100 mln. so'mgacha, qat'iy belgilangan soliq;
- 100 mln. so'mdan 1,0 mlrd. so'mgacha tashkil etganda, 4 foizlik stavkada yagona soliq to'lovi;
- 1,0 mlrd. so'mdan oshganda yuridik shaxslar tomonidan to'lanishi nazarda tutilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni, xususan, QQS ham to'laydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'i afzalmi yoki yagona soliq? Seminar davomida mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, qaysi biri afzal ekanini bilish uchun har bir yuridik shaxs o'z faoliyatidan kelib chiqishi, xarajatlari va tushumlarini, hamkorlik qiladigan boshqa korxonalarning QQS to'lovchisi ekanligini ham e'tiborga olishiga to'g'ri keladi. Hisob-kitob qilib ko'rilsa, ayrim hollarda agar QQS to'lovchisi bo'lish soliq xarajatlarini kamaytiradigan bo'lsa, ayrim hollarda oshishiga sabab bo'ladi.

Farg'ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati